

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4- «A» kurs talabasi

Aminova Sayyoraning

«O‘ZBEK ADABIYOTIDA BOBUR OBRAZI VA UNING
QIYOSIY TAHLILI»

mavzusida tayyorlagan
REFERAT I SH I

NUKUS – 2015

R E J A :

1. Kirish
2. O`zbek she`riyatida Bobur obrazi.
3. O`zbek nasrida Bobur timsoli.
4. Xulosa.
5. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

Kirish

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham rivojlanishining mohiyati, uning sur'atlari insonlarning ma'naviy kamoloti darajasiga bog'liq bo'lgan. Qaysi erda ma'naviy kamolot yuksak bo'lib ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlar oqilona yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shu saltanatda jamiyat ijtimoiy ma'lum.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li» «Yo'limiz - mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo'li», «Istiqlool va ma'naviyat», O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarlari, Prezidentimizning ma'naviyat, milliy g'oya, mafkura, maorif, madaniyat masalalari bo'yicha savollarga bergan javoblari va nutqlari, ayniqsa, «Hozirgi bosqichda demokratik islohatlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari» Prezidentimizning O'zbekiston axbrot agentligi muxbiri bilan «Hushyorlikka da'vat» mavzusidagi suhbatlari hamda Oliy Majlis XIV sessiyasidagi nutqlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n beshinchi sessiyasidagi tarixiy ma'ruzasi xalqimizning dunyo qarashini shakllantirishda va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu ma'ruzalar to'plamining nazariy masalalarini shu asarlar asosida yoritib berilgan.

Tarix – bosib o'tilgan yo'l. Uni har qanday bo'lmasin orqaga qaytarib bo'lmaydi. Shuning uchun u hech vaqt qo'shib-chatilmasdan tadqiq etilishi va avlodlarga bor haqiqati bilan etkazilishi kerak. Bugungi kundan turib, bosib o'tilgan yo'lga nazar tashlasak, xalqimizning ming-minglab yillik taqdiri nari tursin, shu yuz yillik tarixi ham to'la, haqqoniy tadqiq etilmaganligiga amin bo'lamiz. Butun boshli xalq tarixi, xatto, ko'plab shaxslar taqdiri davr to'fonlarida chalkash, xato baholanganini ko'ramiz.

Roman janri adabiy jarayonning hamisha eng dolzarb janrlaridan biri bo'lib kelgan. O'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy asos solgan bu janr katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. “O'tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlaridan boshlangan o'zbek romanchilik maktabi katta tajriba to'pladi, g'oyaviy-badiiy jihatidan yuksalib, bugungi taraqqiyot bosqichi darajasiga ko'tarildi.

Adabiy jarayonda roman janridagi ko'tarilish, yuksalish o'tgan asrning elliginchi-oltmishinchi yillaridan boshlanadi deyish mumkin. Sababi bu davrda adabiyotga yangi kuchlar kelib qo'shildi. Roman janri ham son, ham badiiy saviya jihatidan ibratli bir shaklda rivojlana boshladi. Rang-barang mavzularda o'nlab romanlar paydo bo'ldi. Oybek, A.Qahhorlar bilan bir safda turib I.Rahim, Sh.Rashidov, Mirmuhsin, A.Muxtar, Shuhrat, S.Ahmad, G'.G'ulom, R.Fayziy bulardan sal keyinroq adabiyotga kirib kelgan. O.Yoqubov, P.Qodirov, O'.O'marbekov, J.Abdullaxanov singari yozuvchilar bu janrda juda barakali ijod qila boshladilar. O'tgan asrning etmishinchi-saksaninchi yillari esa roman janri taraqqiyotida yangi etap bo'ldi. Abadiiy jarayonda nasrda qalam tebratadigan yangi ijodiy kuchlarning kirib kelishi bu janrning qiyofasini butunlay o'zgartirib yubordi, uning g'oyaviy-badiiy saviyasini bir qancha oshirdi. Bu davr adabiy jarayonidagi romanchilikning muvaffaqiyatlari O'.Hoshimov, O.Muxtor, Sh.Xolmirzaev, O'.Usmanov kabi yozuvchilarning nomi bilan bog'liq.

O'tgan asrning to'qsoninchi yillarida o'zbek adabiyotida bir talay siljishlar, muvaffaqiyatlar qo'lga kirtildi. Lekin bu davr adabiyoti taraqqiyotida bir muncha orqada qolish holatlari kuzatiladi. Buning asosiy sabablaridan biri, bizning nazarimizda hali yozuvchilarimizning mustaqillik davri siyosati va mafkurasiga to'la ma'noda moslashib lenta olmaganida bo'lsa kerak.

Milliy qadriyatlarga qaytish jarayoni kelayotgan bir sharoitda buni avlod-ajdodlarimiz haqida shunday tarixiy romanlarning yaratilishi ayni muddao. Biz kurs ishimizda so'ngi yillarda o'zbek adabiyotida yaratilgan tarixiy shaxslardan Zahriddin Muhammad Bobur obrazining talqini haqida mulohaza yuritishni maqsadga keldik. Keyingi davrlarda tarixiy va zamonaviy yaratilgan asarlar misolida ularni g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilishga urindik. Biz so'z kiritmoqchi bo'lgan asarlar haqida o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida ancha-muncha fikrlar bildirilgan. O.Sharafiddinov, M.Qo'shjanov, U.Normatov, N.Xudaybergenov, N.Karimov, S.Mamajanov kabi adabiyotshunos va tanqidchilarning bu yo'nalishida bir qancha maqolalari taqrizlari bor.

O`zbek she`riyatida Bobur obrazi

Zahiriddin Muhammad Bobur o`zbek mumtoz adabiyotining rivojiga ulkan hissa qo`shgan dunyoviy adabiyot vakili.

Adabiyot insonning ma`naviy qadriyatlarini shakllantirish va axloqiy qiyofasini belgilashga eng ko`p hamda samarli ta`sir ko`rsatuvchi san`at turi.

O`zbek adabiyotida mashhur tarixiy shaxs Zahiriddin Muhammad Bobur obrazini yaratish sohasida keyingi davrlarda jiddiy yutuqlarga erishildi. Oybekning «Bobur» (1957), Pirimkul Qodirovning «Yulduzli tunlar» (1978), Barot Boyqobilovning «Kun va tun» (1981), Erkin Vohidovning «Kelajakka maktub» (1982), Xayriddin Sultonning «Boburiynoma» (1998) asarlari shular jumlasidan bo`lib, ularda Bobur hayotining asosiy nuqtalari realistik buyoqlarda tasvirlangan. Bobur haqli ravishda buyuk vatanparvar inson, o`z davrining ulug` farzandi sifatida ko`rsatilgan.

Oybekning «Bobur» dostoni yozib tugallanmagan asar. Shunga qaramay, unda Bobur shaxsining asosiy jihatlari to`g`ri ochib berilgan. Dostonda asosiy diqqat Boburning podshohligini tasvirlashga emas, balki uning benazir ijodkor, ajoyib shoir va buyuk vatanparvar inson ekanini ko`rsatishga qaratilgan hamda bu masalalar mahorat bilan ochib berilgan. Oybek Boburning ona Vatan tuprog`ini, eru-osmonini, zilol suvlarini, shirin-shakar mevalarini, dardga davo sof havosini, aziz, tanti insonlarini sog`inib chekkan iztiroblarini tasvirlar ekan, asar qahramoni tilidan quyidagi poetik xulosani olg`a suradi:

Yot yurtning shohi bo`lguncha, Bobir, Vatanningda bul qalandar shoir.

Doston ona Vatanga bo`lgan mehr-muhabbatni ifodalovchi bunday yorqin, hikmatli misralarga serob. Asar Boburning «Vatanga elting, do`stlar jasadim; afsus etmaydi endi qadamim» — tarzidagi vasiyati bilan tugaydi. Bunda ham Boburning ona Vatanga, o`zi tug`ilib o`sgan el-yurtga mehri, e`tiqodi bo`rtib turadi.

Barot Boyqobilovning «Kun va tun» she`riy qissasida ham mavzu muvaffaqiyat bilan yoritilgan. Unda uzoq, o`tmish va hozirgi zamon uzviy bog`liq holda aks ettirilgan.

Shoir asarda Bobur obrazini yaratar ekan, uning zohiriy ahamiyatini, hind xalqining Boburga boʻlgan muhabbatini ham toʻgʻri tasvirlab beraolgan:

***Hindiston mulkida bu tengsiz daxo
Oʻz farzandi yangligʻ topoldi qaror...
Bugun Hindistonda mehmon boʻlsa kim,
Hind eli soʻzlaydi unga Boburdan.
Oʻzbek farzandini ardogʻlab maʼsum,
Doʻstlar mamnun erur buyuk shoirdan.***

Erkin Vohidovning «Kelajakka maktub» asarida ham hayot haqiqati mahorat bilan aks ettirilgan. Shunga koʻra bu sheʼriy asar Bobur hayotiga, buyuk shoir va dono podshoh Bobur faoliyatiga berilgan haqqoniy poetik xulosa sifatida aks sado beradi:

***Sokin shiftga boqib yotar Boburshoh,
Umri bitganidan yuragi ogoh,
Sohibi saltanat, sohibi qalam.
Koʻnglida shukrona va bitmas alam.
Shukrkim, kuymadi farzand dogʻida,
Alamkim, oʻlmadi yurt mynpogʻuda.
Shukrkim, baytlarda nomi qolajak,
Alamkim, zobit der uni kelajak,
Shukrkim, bu yurtni qiloldi obod,
Alamkim, muhtojlik boʻlmadi barbod.
Gadolar yurtidir bu gavhar tuproq,
Shu bois shukridan alami koʻproq.***

Bobur Samarqandni qoʻlga kiritgan payt ayni toj-taxt uchun urishlar avjiga chiqqan edi. Samarqand shahri nihoyatda qoshshoqlashib qolgan edi. Buning ustiga Fargʻonadagi ayrim beklar Boburga xiyonat qiladilar. Andijondan mahrum boʻlmaslik uchun Bobur u erga qarab yoʻl oladi. Lekin Xoʻjaandga etganda Andijonning ham, Samarqandning ham qoʻldan ketganligini eshitadi. Shundan ikki yil oʻtganda soʻng Bobur Andijonni qoʻlga kiritadi, u yana Samarqandni

egallashni mo`jallaydi. Bu paytda Samarqandni Shayboniyxon egallab oladi. Shayboniyxon Samarqandga amirlaridan birini hokim qilib, o`zi yurishlarini davom ettiradi. Samarqand aholisi shaharning Shayboniyxon qo`liga o`tishidan norozi edilar va Bobur ular ko`magida Samarqandni qayta egallab oladi. Lekin Shayboniyxon yana qo`shin to`plab Samarqandga yurish qiladi va shaharni besh oy qamalda saqlaydi. Shahar aholisining ogir ahvolda qolganligini ko`rgan Bobur sulh tuzib, shahardan chiqib ketadi. U Andijonga qarab yo`l oladi, lekin Andijonga kirolmay 1501-1502 yillarda goh Jizzax, goh O`rtatepa, goh Toshkent, goh Xo`jand, goh Mastachoh atroflarida sargardon bo`lib yuradi. 1502-1503 yillarda u O`sh va uning atrofini egallab oladi, ammo Ahmad Tanbaldan engiladi. U Toshkentga tagasi Mahmudxon huzuriga yo`l oladi. Togasi yordamida Andijonni qo`lga kiritmoqchi bo`ladi. Lekin jangda Shayboniyxonning qo`li baland keladi. 1503-1504 yillarda Shayboniyxon Andijon va Toshkentni qo`lga kiritadi. Shundan so`ng Bobur Mavorounnahrda yirik davlat vujudga keltirishiga ko`zi etmay 1504 yilda Afgonistonga qarab yuradi. Shu yurishda Bobur yo`l-yo`lakay afgon qabilalarini o`ziga bo`ysundirib boradi. U Qobul va Gazna viloyatlarini qo`lga kiritadi. Bu vaqtda Shoyboniyxon Xurosonni bosib olishga tayyorlanayotgan edi. Bobur va Husayin Bayqaro birlashib Shayboniyxonga hujmga tayyorlanadilar, lekin kuchlar bir-biriga birlasha olmaydi. Hirot ostonalarida temuriylar Shayboniydan engiladi. Bobur Amudaryodan kechib hisrotga qarab yo`l oladi. U Mavorounnahrqa qaytib kelmoqchi va u erda o`z hokimiyatini tiklamoqchi bo`ladi. U shoh Ismoil yordam so`raydi. 1512 yili Bobur Samarqandni uchunchi bor egallaydi va Eron qo`shinlariga vataniga qaytishga ruxsat beradi. Bu fursatdan foydalangan. Shayboniyxon qo`shini Boburga qarshi yurish qiladi. Bobur jangda engilib, hisorga qochadi. Samarqand yana shayboniylar qo`liga o`tadi. Shoh Ismoil Boburga madad uchun Najim Soniy laqabli sarkarda rahbarligida qo`shin yuboradi. Ular qo`shinlari Termiz atrofida uchrashadilar. Shundan so`ng Buxoroga yurish qiladilar. Bu jangda ham Shayboniylar qo`li baland keladi. Bobur maglubiyatga uchrab Qobulga qaytadi. Bobur Afgonistonda o`z hokimiyatini mustahkamlab oladi. U Afgonistonning xo`jaligi va madaniyatiga katta e`tibor beradi. Bobur o`z yurtiga qaytib, uni

Shayboniyxon qo`lidan qaytarib olishi uchun katta kuch kerak edi. Bu Hindistonni bosib olib, uni yagona hokim ostiga birlashtirish orqali erishish mumkinligini Bobur anglaydi. 1525 yili u Hindistonga yurish qiladi. O`z vatanini tark etayotgan Bobur o`z gam anduhlarini ruboiylarida quyidagicha aks ettiradi:

Tole` yo`gi shonimga balolig bo`ladi.

Har ishniki ayladim xatolig bo`ladi.

O`z erni qo`yib, Hind sari yuzlandim.

Yo rab, netayin ne yuz qaralig bo`ldi.

Bobur o`z asarlarida o`z kechinmalarini ifodalagan.

Bobur 1519 yildan boshlab Hindistonga besh marta yurish qiladi. 1525 yilda Dehliga yurish qiladi. Bu payt Dehlida Ibrohim Lo`di hukmronlik qilar edi. Uning qo`shini Bobur askarlaridan ancha ko`p edi, lekin Bobur ajoyib harbiy san`atini ishga solib uni engadi. Shundan so`ng Boburga Rano Sango boshchilidagi qo`shin bosh ko`taradi. Ikki o`rtada dahshatli jang boshlanadi. Nihoyat jang 1527 yil Bobur galabasi bilan tugaydi va u Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos soladi. Boburning Hindistonda turib Vatanni qo`msashi, umri oxiriga qadar vatanga qaytish orzusida yashagan. Keyin umirining qisqa va notinchligiga qaramay, ilm va ijod sohasida ham katta ishlar qila olgan siymodir. U 20 yoshida yangi bir yozuv-xatti Boburiyni kashf etdi. Aruz ilm, musiqa nazariyasi, va amaliyoti bilan shugullandi.

«Harb ishi» «Musiqa ilmi» nomli kitoblar yozdi. «Muxtasar» asari A.Navoiyning «Me`zon ul-avzon»dan keyin aruz ilmiga bagishlangan ikkinchi asar edi.

Bobur she`riy devonlar tuzdi. O`zbek va fors tillarida 400 dan ortiqroq go`zal she`rlar qoldirdi. O`z hayot yo`lini benihoya samimiy hikoya qilib beruvchi «Boburnoma»dek muhtasham obidani yaratdi. «Boburnoma»gina emas, she`rlarining ham ko`pchiligi buyuk qalb egasining o`ziga xos iqrornomalari shoh va shoir hayotining lavhalaridir. Ko`p yillik ogir va dahshatli janrlar tugilib o`sgan el-yurtdan yiroqlashish va yaqin do`stlardan ojralishi Boburni qattiq ezadi. Bobur vatanni qo`msaydi, yor-do`stlarni sog`inadi. Kunlarning birida unga Fargonadan qovun keltirganlarida u qovunni so`yib turib achchiq-achchiq yiglaydi. Bobur

ruboiy janrini yuksak pogonaga ko'tardi. Tabiatan ijtimoiy falsafiy bo'lgan ruboiy janrga kundalik hayotiy mazmunni kiritdi. Uning ko'pgina ruboiylari sarson-sargardon kechgan hayotining iqrornomalariday taassurot qoldiradi. Garchi ozod etsada, oltin-kumush ilinjida yurgan pastkashlardan emasman. Uyma-uy yurib mol yigishtirib yurgan gadolardek ham emasman. Qobulda Bobur o'z huzur-halovati bilan qolib ketdi dersiz. Yo`q-yo`q zinhor unday emas, men uzoq qolib ketmayman, Albatta ota yurtimga qaytaman deya hayqirgandek bo'ladi shoir.

U vatan judolikni taqdirdan deb biladi. O'zini baxtsiz tomsiz hisoblaydi. Tomsizlik bilan chiqisha olmaydi. Alam bilan Qobulni, Hindistonni zabt etadi, biroq bundan ko'ngli taskin topmaydi. Hech bir yurt uning uchun «O'z er»idek-Vatandek bo'lmaydi. Aksincha «hind sari» borishni «xatolik», «yuz qaroliq» hisobladi.

Shoir Bobur haqida bayon qilar ekan, uning shaxsiy xususiyatlarini ham bayon qiladi. Ayniqsa uning ahli ayollarga hurmat nazari bilan qarashi qizi Gulbadanbegimning «Humoyunnoma» asaridagi Bobur haqida xotiralarini misol tariqasida keltirish mumkin: «Rano Sango Fatxidan so'ng bir yil o'tgach, onam hazratlari Mohimbegim Qobuldan Hindistonga keldilar. Men ham padshoh bobomni ko'rganim, u kishi bilan birga onamlardan oldin keldim. Onam hazratlari qo'lga etganlarida podshoh hazratlari otlik muhofa yubordilar. Biz ko'ldan agra tomon yo'l oldik. Podshoh hazratlari bizni Shomiy ko'lida uchratishni mo'ljallagan edilar. Nomozshom payti bir kishi kelib Hazratni ikki kurva narida qoldirib keldim» dedi. Podshoh bobom hazratlari to ot kelgunlariga toqat qilmay piyoda yo'lga tushib, Chinch Mohim uyi oldida biz bilan uchrashdilar onam hazratlari otdagi tushmoqchi bo'ldilar lekin podshoh bobom kutmasdan o'zlari onamning otlari jilovidan ushlab, o'z uylariga kelguncha piyoda keldilar».¹ Boburning ayollarga bo'lgan hurmatini ifoda etuvchi bunday misollar Bobur shaxsiyatini ravshanlashtiruvchi tasavvur uygotish mumkin. Boburning Hindiston xalqining iqtisodiy siyosiy va madaniy hayotini, ayniqsa, mamlakat obodonchiligiga e'tibori diqqatga sazovordir.

¹ Azimjonova S «Gulbadanbegim» «Guliston» jurnal Toshkent 1990 11-son 10-11 bet.

Bobur turli imoratlar va boglar bilan juda qiziqqan, ularni katta hafsala va ziyraklik bilan kuzatgan, hatto ularni nomma-nom yozib qoldirgan. «Boburnoma»da bog'i safidagi bir ko'shk tasvirini quydagicha keltiradi.

«Tarabxona bogchaning o'rtasida voqe' bo'lib tur, muxtasarroq imoratdur, ikki oshiyonalik, vale shiringina imoratdur. Yuqorirogi oshyonida takalluf ko'prak qilibtur. To'rt kungilda to'rt hugiradur. O'zga bu to'rt hushraning o'rtasi va monbaynlari tomon bir uy dohildur. Bir uydirkim hujralarning mobayni to'rt shaxsining yo'sunluk bo'lubtur».²

Boburning hayot yo'li va shaxsiy xususiyatlari haqidagi ma'lumot oxirida uning vafot etgan yili ko'rsatiladi. Bobur 1530 yil 26 dekabrda Agrada vafot etadi.

Xullas, o'zbek she'riyatida Bobur timsoli hayotda xorlik va zorlikni shon-shavkatni va tantanani kerakgidan ortiq tortgan bu nozik ta'b shaxs yirik davlat arbobi va lashkarboshi bo'lishi bilan birga etuk shoir, iste'dodli olim bo'lganligi badiiy tasviriy vositalarda tasvirlangan. O'zining she'riy mashqlarini juda erta boshlagan Bobur gazal, ruboiy, qit'a, tuyuq, fard kabi janrlarda ijod qildi.

U o'zining boshidan kechirgan barcha voqealari o'zi ko'rgan va kezgan joylar o'zi bilan va uchratgan shaxslar haqida ma'lumot beruvchi «Boburnoma» asarini yaratdiki, bu asar XVI asr o'zbek badiiy tarixiy nasrining guzal namunasi hisoblanadi. «Boburnoma» Zahriddin Muhammad Boburning butun hayot yo'li davomidagi esdaliklaridir. U 12 yoshidan hayotining so'ngigacha bo'lgan voqealarni qayd qilib borgan va umrining oxirlarida, 1525-1530 yillarda ushbu asarini yaratgan. Unda 15-16 yillik voqea tushib qolgan. Sababi har xil tahlil qilinadi. Asarning o'ndan ortiq qo'lyozmalari bo'lib, jahonning turli kutubxonalarida saqlanadi. Dunyoning juda ko'p tillariga tarjima qilingan. U asosda ko'plab badiiy asarlar yozilgan.

O'zbek nasrida Bobur timsoli

O'zbek adib va shoirlari P. Qodirov, B.Boyqobilov, X.Sultonovlar Boburga bag'ishlab roman, qissa, doston yaratganlar. Shoir va yozuvchilarimiz Bobur

² Bobur Zahriddin Muhammad «Boburnoma» Toshkent 1990 yil.

timsolini yaratar ekanlar, birinchi galda «Boburnoma»ga murojaaaat etadilar. Chunki «Boburnoma» ham tarixiy, ham badiiy asarday. Unda 1494 yildan 1530 yilgacha Xuroson, Mavarounnahr, Hindistonda yuz bergan voqealar aks etgan. Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo, Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud kabi o`nlab taxt egalari, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Kamaliddin Binoiy, Behzod, Mirak Naqqosh, Husayn Udiy, singari adabiyot va san`at arboblari haqida qimmatli ma`lumotlar, mulohazalar keltirilgan.

Bularning hammasi tarix uchun muhimdir. Bobur tabiatan nihoyatda ziyrak va sinchkov, goyat fahmli va idrokli, hamma narsaga qiziquvchan edi. U qaerga bormasin, o`sha erning jo`grofiy o`rnidan tortib o`simlik va hayvonot dunyosigacha ob-havosidan elining tili-yu urf-udumigacha hamma hamasi bilan qiziqadi va yozib qoldiradi. «Boburnoma» shu jihatlari uchun ham o`ta qadrli-qimmatli asardir. Bobur nima haqida, kim haqida yozmasin, goyat samimiydir. O`zining quvonchini ham, gamini ham hech kimdan yashirmay, ro`y-rost aytadi. Do`sti haqida ham, dushmani haqida ham ko`nglidagini so`zlaydi. Bu hol asarga alohida ruh bogishlaydi. «Boburnoma» badiyatiga ko`ra ham o`zbek mumtoz nasrining eng guzal namunosidir. O`z davrining eng so`nggi ma`lumot va mulohazalarini bir joyga to`plagan bu qamus badiiy zavqi baland ijodkor tomonidan yozilgan edi. Unda go`zal ijodiy kuzatishlar, chiroyli badiiy lavhalar ham talaygina muallifning har zamonda ichki kafiylar-saj`ga murojaat qilishi asarga alohida ko`rkamlik bagishlaydi. «Boburnoma» o`zbek adabiyotidagi nasr taraqqiyotiga katta ta`sir ko`rsatdi. XVII asrda yashagan Abulgozi Bahodirxonning «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» asarlari shu ta`sirning samaralaridir.

Bobur haqida buyuk kishilarning fikrlari uning shaxsiy fazilatlari haqida ajoyib fikrlarni bildirganlar. J. Neru «Bobur uygonish davrining tipik vakili, zakovatli, davyurak va tadbirkor shaxs bo`lgan, u san`atni, adabiyotni sevgan, hayot nafosatidan lazzatlana bilgan» deb yozadi. «Boburnoma» da tasvirlangan jamiki narsalar, vaqealar muallif shaxsiyati orqali o`tgan, rivojlangan shu tariqa

o'z mazmunini to'la namoyon qilgan, ma'naviyat va abadiyat mulkiga aylangani bilan jahonga ma'lum va mashhur bo'ladi. Bu go'zal asarda J. Neru ta'biri bilan aytganda, go'zal shaxs bo'lgan Boburning juda ko'p fazilatlarini bilan qatorda axloqiy-estetik qarashlari ham yorqin bir tarzda o'z ifodasini topadi. U tabiat va jamiyat nafosatini, shaxs, urf-odatlar va morasimlar, me'morchilik, bog', adabiyot va san'at xullas, jamiki nafosatni chuqur his qiladi va teran tahlil qiladi. Muallif asar davomida barkamol, ya'ni ahloqiy va estetik mukammal inson sifatida shakllanadi.

Zahriddin Muhammad Bobur shu bilan birga mohir tarjimon hamdir. U Xo'ja Ahrorning «Risolasi Volidiya» asarini tarjima qiladi. Bobur haqidagi birinchi roman muallifi amerikalik olim va yozuvchi Gerand Lem asarini «Bobur arslon» deb nomlaydi. Bu romonni 1961 yil Amerikaning Chikago shahrida ingiliz nashr ettiradi. U shunday deb yozadi: «. . . Bobur, Ulugbek Samarqandda yo'l tutgandek yo'l tutdi, o'zini faqat hukmdor shoh debgina emas balki, inson mamlakatni idora etishga javobgar shaxs deb bildi. . .»

Ingiliz sharqshunosi Eduard Golden esa «Boburda buyuk qalb egasiga xos bo'lgan barcha oliyjanob fazilatlar mavjud edi, uning asarlari yuksak darajada mukammallik kasb etadi»³ deb yozgan edi.

Ikkinchi-himmati arjumand edi. Bobur Mirzoning fikricha podshohlikning asosiy shartlaridan biri adolatning etuk pallasini himmat bilan belgilanadi. Afgonistonning Nangarxor viloyatida Mirzo Ulugbek qurdirgan bogini Bobur bir kampirdan o'z narxidan o'n hissa ko'p pul berib rozi qilganida, Hindistonni zabt etganida, qashshoqlikda qolgan ahli musofirlarga turli hadyalar berganida, janglarda tushgan o'ljalarni adolat bilan taqsimlashida bu himmat yanada yaqqol ko'rinadi. Lekin Bobur himmatni faqat iqtisodiy jihatdangina deb bilmaydi balki do'stga ardoq va hurmatning ham qadriga etadi.

Uchunchisi- viloyat olmoq.

«Boburnoma»da muallif mulk olish siyosati keng va atroflicha, turli rang va jilolarda o'z aksini topgan. Hindistonga qadam qo'yganda Bobur ming

³ Qudratullaev «Himmati arshumand Bobur» «Tafakkur» 1996 yil 3 son.

andishaga tushadi. O`zi ta`kidlaganidek tabiati, dini, urf-odati, xalqi, hatto hayvonot va nabobot olami o`zga bo`lgan bu yurtida muhim o`rnashish niyatida mahalliy xalq bilan til topishini, siyosat yurgizimni lozim biladi. Biroq shuni ham ta`kidlash kerakki hindilarning hammasi ham Boburning siyosatini ma`qul ko`rmagan lekin Bobur o`z eri, vataniga sodiq kishilar ruhiyatini «Boburnoma»da aniq ko`rsatib bergan. To`rtinchisi-viloyat saqlamoq. Tarixiy dalillar shundan dalolat beradiki, Bobur qayta bunyod etgan temuriylar saltanati, rasm-odati, qonun-qoidasi, mustahkam qo`shinini asrash va uni ta`minlash borasidagi tartiboti bilan nafaqat o`zining hayotiylik davrida balki keyin ham o`zini oqlab keldi. Boburning Afgoniston va Hindistonda ona yurtida qurolmagan imorat va boglari sugorish inshootlarini bunyod etishi «viloyat saqlash» siyosatini anglatadi. U yurt saqlashni, avvalo, erga mehrdan boshladi. Qo`lga kiritgan joylarini obod etdi, yangidan-yangi daraxt, gul nihollari, poliz ekinlari o`stirishi tajriba etdi. Bu sohada yutuqqa erishdi. Biroq u qaerda bo`lmasin temuriylar saltanatidagi urf-odat tortib va intizomni kanda qilmadi.

Beshinchisi- ma`murlik.

Boburning fikricha, har qanday ma`murlik adolat bilan xukm chiqarishga bogliq. Faqat adolatli tuzumgina haqiqiy ma`murlikni vujudga keltiradi. Qo`lga kiritilgan o`lja boylik, er-suvlarni beku-a`yonlar, shahzodalarga insof va adolat jihatidan taqsimlash ham yurt ma`murligining asosini tashkil etadi. Masalan: Bobur Hindiston safari davomida Kalot degan joyga etganida uning askarlari yo`lda uchragan Hindiston savdogarlarini talashni ixtiyor etadilar. Lekin Bobur bu ishga qarshi chiqadi va adolatdan emasligini bildiradi.

Oltinchisi- rafohiyat niyati tangri ta`olo bandalariga.

Bobur siyosatida andisha-avf etish, bechoraga ko`mak kayfi hamisha ustun bo`lgan. Adashganni kechirish musulmonchilik, shariat ahkomiga bo`ysunish Bobur mamlakatchilik siyosatining negizi hisoblangan.

Bobur Andijonni tark etib, Afgoniston erlarini kezar ekan, Hirotdan Qobulga qaytishi qish fasliga to`gri keladi. Haftalab qor yoqqan, sovuq, Bobur ana shu qor kechish manzarasi orqali inson irodasi, uning tabiat mashaqqatlariga

bardoshini juda jonli, hayotiy tasvirlaydi. Shoh Boburning cherik ahliga munosabati shu vaqt voqea misolida yorqin aks etadi. Bobur yo'l ochuvchilarga shohlarcha munosabatda bo'lmaydi. Balki ularga shafqat ko'zi bilan qaraydi. O'zi ham barcha qatori qor shibbalab yo'l ochadi.

«Bir haftacha sovuq qor tepib, kunda bir sha'riy, yarim sha'riy ortuq kishi men edim. O'n-o'n beshlar ichki bila va Qosimbek edi. Ikki o'gli Tangriberdi va Qambar Ali bila ikki-uch navkari ham bor edi. Ushbu mazkur bo'lgon yayoq turib qor tepar edik. Har kishi etti-sakkiz, sakkiz-o'n qarich ilgari yurib qor tepar edi. Har qadam qo'ygonida beligacha, ko'ksigacha bota-bota qor tepar edi. Bir necha qadam borgondan so'ng ilgarigi kishining xalmi kuyub turar edi. Yana bir kishi ilgari o'tar edi. Bu o'n-o'n besh, yigirma kishi oyoq qornikim tepar edi, ancha bo'lur edikim, bo'sh otni tortsa bo'lur edi... Mahal ul emas edikim, kishiga taklif va zo're qililgay, har kimning himmat va jur'ati bo'lsa, bundoq kishilarni uhi talab qilar».

Bu tadbir, birinchidan, Boburning mushkul paytlarida o'z eli bilan hamdardligini bildirasa, ikkinchidan uning harbiy taktikasini, rahmdilligi, inson ruhining bilimdoni ekanidan dalolat beradi. ettinchisi cherikning ko'nglini olmoq. Boburning askar ko'nglini olmagining bosh maqsadi kimning qaerdanligi, millati, kasbiga qarab, emas, balki uncha shohga sadoqati, mardligi, fidoiyligi vafodorligi, davlat himoyasiga qo'shgan hissasi bilan belgilangan.

«Yolgiz bu emas, har qachonkim tangri taolo davlat berdi mehmon va garib beklarni, yigitlarni, boylaridin, andijoniylaridin ortuqroq va yaxshiroq ko'rdim. Bovujud baloedurkim, hamisha el meni giybat qilurlarkim, boylaridin va andijoniylaridin o'zgani rioyat qilmas. Masal borkim «dushman ne demas, tushga ne kirmas» «Darvozom shahrrotavon bast, natovon daxoni muxalifan bast (shahar darvozasin bekitsa bo'ladi, ammo muxoliflar ogzini berkitib bo'lmaydi.

Sakkizinchi-adolat qilmoq.

Boburning yuksak insoniy fazilatlari uning davlatchiligida, nisbatan adolat bilan ish tutishida o'z aksini topdi. U barcha farzandlariga bir ko'z bilan

qaradi, agarchi Hmoyunga mehri baland edi, ammo boshqa shoh zodalarga uni qarama-qarshi qo`ymadi. Tiriklik paytida farzandlarini rizo etib mulk qoldirdi. Boburning nazdida navkar beklarning sadoqati, sadoqat bilan taqdirlanishi kerak. Mirzo hamisha ana shu aqidaga sodiq qoldi. «Do`stbek vafotidan so`ng uning ukasiga bir viloyatni beradi. «Do`stbekning vafotidin so`ngra viloyatni inisi Mirim Nosirga berdim»- deydi Bobur.

Bu uning sadoqatli beklariga bo`lgan hurmati ifodasidir. Hatto ular vafotidan so`ng ham Bobur ular xonadonidan-oilasidan xabardor bo`lgan. Bu esa Boburning oliyhimmat, muruvvatli shoh ekanidan dalolat beradi. Mana shu fazilatlar romanda keng tasvirlangan.

O`zbek adabiyotida Bobur haqida yozilgan asarlar orasida Pirimkul Qodirovning («Yulduzli tunlar») romani o`zning chuqur realizmi va g`oyat qiziqarli, go`zal qilib yozilgani bilan ajralib turadi. Romanda hayot haqiqatini, Bobur yaragan murakkab davrni (XV—XVI) va bu inson Bobur obrazini ochib berish uchun lozim bo`lgan tipik voqealar, hayotiy detallar ko`p va ular joy-joyida yorqin ifodalangan.

Pirimkul Kodirov «Yulduzli tunlar»ni yaratish bilan tarixiy mavzuni badiiy uzlashtirishning yangi namunasini kursatdi. Binobarin, roman markazida yakka tarixiy shaxe Bobur obrazi tursa-da, asarda mexnat-kash xalk, tarixni xarakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida namoyon buladi. Demak, asarda Bobur yashagan murakkab va ziddiyatli davr, xususan, romanning bosh qahramoni Bobur hayoti bilan bog`liq bo`lgan muhim voqealar nihoyatda tabiiy va jonli aks etgan.

Pirimkul Kodirov romanda «Boburnoma», «Xumoyunnoma» singari mashhur asl manbalardan urindi, ijodiy foydalangan. Bu xol «Yulduzli tunlar»da hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanishida muhim rol o`ynagan.

«Yulduzli tunlar» — tarixiy-biografik roman. Unda ulug` noyob inson: Boburning ziddiyatli hayoti, faoliyati, markazlashgan yirik davlat tuzish yo`lida chekkan aziyatlari, ko`rsatgan jasoratlari keng tarixiy ko`lamda mohirona tasvirlab berilgan. Roman voqeasi Boburning Andijondagi yoshlik chog`larini tasvirlashdan boshlanadi. Va u Boburning Shayboniixon xujumlariga karshi kurashda goh engib, goh engilib, nihoyat Afgoniston

va Hindistondagi tarqoq; xonliklar ustidan g'alaba qozonishi, «Boburiylar sulolasi» deb nom olgan yirik feodal davlatni tuzishi kabi voqealar silsilasini o'z ichiga qamrab oladi.

Roman voqeasi Boburning Agrada o'zi tashkil etgan bog'da vafot etishi tasviri bilan yakunlanadi. Ana shu voqealar tasviri jarayonida Bobur talantli lirik shoir, adib, mohir sarkarda, buyuk davlat arbobi, samimiy inson, mexribon ota, san'at va adabiyot xomiysi, tarixchi olim sifatida gavdalanadi. Roman voqeasi bosh qaxramon Boburning vafotini aks ettirish bilan tugasa-da, unda hayotbaxsh ruh (optimizm) balkib turadi. Romanda podshoh Bobur o'lgan bo'lsada, buyuk shoir Bobur o'lmagan, uning xayoti u yaratgan dilbar asarlarda mangu davom etmokda degan muxim g'oya yorquin aks ettirilgan.

Romanda Bobur obrazining jonli va tulakrnl chikishida yozuvchi Pirimqul Qodirovning ruxiy taxlil san'atidan (psixologik taxlildan) mohirona foydalangani va har bir vokeani puxta asoslay bilgani alohida axamiyat kasb etgan. Romandagi Boburning ona Vatanga bulgan mexr-muxabbati, uz ona yurtidan yirokda yashashga majbur bo'lib chekkan iztiroblari, ona Vatanni soginishi tasvirlangan saxifalar ruxiy tahlil san'atining guzal namunasi. Bobur o'z xayotining sungida suyukli ugli Xumoyunga vasiyat qilib, «Men tugilgan yurt bilan aloqani uzmanglar, shoyad men bitgan kitoblar ikki oradagi aloqaning rishtalari bulsa», — deydi.

Shoh Bobur romanda xakikiy inson, mexribon ota sifatida gavdalanadi. «Xumoyun, jigarim, - deydi Bobur podshoh ogir kasal bulib yotgan ugliga karab, — sening betoqatligingga men toqat keltiray! Sening shu ogir dardingni xudo sendan olib menga bersin».

Romanda Boburning aqlu farosati, har narsani chukur uylab adolatli hal kilishi yaqqol ifodalangan. Bobur sadokat va fidoyilikni yuksak kadrlyaydi. U ugli Xumoyunga nasixat kilib, «Temuriylarning kupchiligi... fidoyilikni unutib,.. yuq bulib ketdi. O'g'il otani uldirdi... Oga iniga xiyonat kildi... Okibatda bari razolatning kurboni buldi... undan kura... yaxshilikning fidosi bulgan afzal emasmi? Mana ammang Xonzodabegim... Samarkanda meni qutqarib uzini asoratga soldi. Bu fidoyilik meni xamisha... shunday bulishga undab keldi... Sen xam endi inilaringu avlodlaringni mardlikka, fidoyilikka urgatgin», — deydi.

Romanda Boburning mard va tantiligi, yomonlikka yaxshilik bilan javob kaytarishi ham samimiyat bilan tasvirlangan (Boburga zaxar bergan malika Baydaning takdirini eslang).

Shuni ham qayd etish lozimki, romanda tasvirlanishicha, Bobur uz faoliyati davomida bir necha bor muvaffakiyatsizlikka uchraydi, lekin tushkunlikka berilmaydi, doimo ulug maksad yulida olg`a intiladi, kiyinchiliklarni tadbir ila engadi. «Yulduzli tunlar» romanida, xususan, Bobur obrazi talkini va tasvirida ibrat olishga loyiq bulgan bunday misollar kup.

«Yulduzli tunlar» romanining zamonaviyligi ham xuddi ana shu ibratda.

«Yulduzli tunlar» romanida Bobur xayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlar bilan birga, salbiy jixatlar xam ochib berilgan. Xususan, uning podshox sifatidagi xato ishlari, shafkatsizligi, Bobur shaxsi va dunyokarashidagi ziddiyatlar, karama-karshiliklar to`g`ri kursatilgan. Adib romanda Boburning butun faoliyatini birdek oklab qo`ya qolmaydi. Balki, okni oq, korani kora kilib tasvirlaydi. Ana shuning uchun dam Boburning buyuk tarixchi Xondamir bilan suxbatda aytgan kuyidagi suzlari romanning g`oyaviy xulosasi, Pirimkul Qodirovning asarda Bobur shaxsiga bergan ijtimoiy-badiiy ta`rifining asl mag`zi sifatida aks sado beradi.

Bobur: «Avlodlar haqiqatni bilsinlar; bizni farishta deb o`ylamasinlar. Qilgan gunoxlarimiz o`zimizga nechog`lik ogir tushganidan ogoh bulsinlar... janglarning qonli sellari, saltanatning toshkin daryoday betinim talotumlari jonimga tegdi. Toju taxt bevafoiligini kupdan beri sezib yuribman. Menga vafo kilsa, fakat yozgan asarlarim vafo kilmogi mumkin. Vatanimga uzim qaytolmasam xam asarlarim kaytmogi mumkin. Endigi orzum —men tug`ilgan yurtimga qilolmagan farzandlik xizmatimni asarlarim qilsa...» deb nola kiladi.

Romanning boshka bir joyida Bobur: «Neki xatolik, neki gunoh qilgan bulsam, hammasining birlamchi sababi mening podshoxligimdir», — deydi.

Kurinadiki, adib podshoxlikni oklamaydi; balki undagi ziddiyatlarni, adolatsizlikni fosh kiladi.

Qisqasi, «Yulduzli tunlar» romanida Boburning xakqoniy. to`laqonli, jonli va go`zal obrazi yaratilgan. Shu bilan birga, asarda Tohir, Fazliddin, Xonzodabegim,

Nigorxonim, Xumoyun, Mohim begam, malika Bayda, Shayboniyxon, Xondamir kabi tarixiy-voqeiy va badiiy to`qima obrazlar gavdalan tirilgan. Bular hammasi romanning g`oyaviy mazmunini, bosh qahramon Bobur obrazini ochishga bevosita xizmat qilgan.

Boburning otasi Umarshayx Mirzo temuriylardan bo`lib, Fargonada hokimlik qilardi. Umarshayx Mirzo temuriylar o`rtasida toj-taxt uchun kurash keskinlashgan davrda hokimlik qildi va bu kurashlarda ishtirok etdi. Umarshayx Mirzoning sakkiz farzandi bo`lib, ular ichida Bobur eng kattasi edi. Bobur oilada temuriyzodalar an`anasiga ko`ra har tomonlama tarbiya oldi. Yosh Bobur tez orada xat-savodini chiqardi, ilm-fan, adabiyot bilan shugullanadi. U ko`p vaqt harbiy mashq bilan mashgul bo`ladi. O`z qabiliyati bilan kattalarni hayratda qoldiradi. Shu o`rinda o`quvchilarga Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidan kichik bir parcha hikoya qilib berish o`quvchilarning diqqatini darsga yanada jalb qiladi va badiiy adabiyotga bo`lgan qiziqishni oshiradi. “Bobur mulozimlari bilan mashq maydonidan chiqayotganida ko`nglida yangi bir istak uygonib, ko`zlari sho`x yiltiradi. U otini to`xtatib, orqasiga o`girildi va jayron qashqa ot mingan navkarni yoniga chaqirdi. Navkar yondoshganda, qo`shni cho`zib, otning egarini silkitib ko`rdi. Egar mahkam urilgan edi. Bobur navkarga ellik qadamcha nariga borishni otdan tushib, jilovidan sekin etaklab ketaverishni buyuradi. Navkar aytilgan joyga borib otdan tushdi va jayron qashqasini sekin etakladi. Bobur bo`z otini choptirib borib navkarga etganida oyoqlarini uzangidan bo`shatdi, qamchini tishiga oldi. Bo`z ot jayron qashqa bilan jips kelgan zahoti Bobur bo`y cho`zib, narigi otning egaridan ikki qo`llab ushladi-yu, bor kuchi bilan egardan-egarga sakradi. Biroq navkarning oti sakrash zarbidan cho`chib, hurkib ketdi. Boburning xipcha gavdasi bir lahza havoda muallaq bo`lib qoldi, keyin pastga tushib ketdi. Oyoqlari erga “tap” etib urildi. Ammo u qo`llarini egardan bo`shatmadi, bo`shatsa yomon yiqilishini sezib jon jahti bilan yopishdi. Bilaklari chindan ham kuchli ekan, shunday ogirlikga bardosh berdi.

Faqat navkar otni to`xtatib olgunicha Boburning oyoqlari erni tirnab, sudralib bordi-yu, bejirim ipak sallasi boshidan uchib ketdi. No`yon Ko`kaldosh yordamga etib kelganda Bobur o`zini o`nglab oyoqda turar, biroq ranggi juda oqarib ketgan edi. No`yon otdan sakrab tushdi va Boburga sallasini olib bermoqsi bo`ldi. Ammo

Bobur to'proqqa tushgan sallaga qaragisi ham kelmadi, qancha hamon tishida edi, uni qo'liga oldi, navkar etaklab kelgan bo'z otga indamay mindi. So'ng otiga qamchi bosib, charbog daraxtlar orasidan ot choptirib ketdi.”⁴

Tariximizning xuddi ana shunday—«boshqalarda o'zimiz haqimizda fikr uyg'otishga huquq beradigan» murakkab shaxslardan yana biri—Zaxiriddin Muhammad Boburdir. «Taxtdagi olim»—Ulurbek bilan «tojdor shoir»—Bobur taqdirlari, fojiasi ham bir-biriga yaqin.

Ingliz sharqshunoslaridan biri Eduard Gol'den Boburning lashkarboshilik va yozuvchilik jihatini Yuliy Tsezarning nomi bilan yonma-yon quyadi. Javoharlal Neru Bobur haqida iliq satrlar yozib qoldirganligi ham ma'lum.

Xulosa

Darhaqiqat, mustamlaka davrida Vatan ozodligi, xalq, erki, mamlakat mustaqilligi yo'lidagi har qanday ezgu harakat qattiq qarshilikka uchrar va ayovsiz bostirilar, bu sohada haq so'zni aytish butunlay man qilingan edi. Matbuotda, badiiy adabiyotda haqiqatni yozishga mutlaqo yo'l qo'yilmasdi. Xususan, mustamlakachilarning yovuz qilmishlariga, adolatsizliklariga, nohaqlik va zulmlariga til tekkizish qat'iy va mutlaqo man etilgandi. Bunday rostguy bo'lish o'sha mash'um yillarda to'g'ridan-to'g'ri og'ir jinoyat sanalardi va ayovsiz jazolanardi.

Mustakillika erishishdek buyuk orzuni amalga oshirish ishiga imkoni boricha ko'maklashdi. Yozuvchilar, jurnalistlar, madaniyat, san'at, ilm-fan va davlat arboblari esa bu xayrli ishda karvonboshi buldilar. Ular o'ta murakkab va ogir sharoitda, jonini jabborga topshirib bulsada, maqsad sari dadil kadam tashladilar. Oxir-okibatda xalkimizning azaliy buyuk orzusi ruyobga chikdi. 1991 yil 31 avgustda O'zbekiston mustamlakachilik zulmi iskanjasidan kuguddi xamda mustakil davlat deb e'lon kilindi.

Natijada Uzbekiston tarixida, uning ijtimoiy-siyosiy, iktisodiy va ma'naviy xayotida bugunlay yangi davr boshlandi. Zamon uzgardi, xalkimiz o'z takdirini, o'z xayoti va kelajagini o'z kaliga oldi. Uzbekiston mustakillikka erishganiga xali kup vakt bulgani yuq. Ana shu kiska muddat ichida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, moddiy-

⁴ Qodirov.P «Yulduzli tunlar» Toshkent, «O'zbekiston» 1990 yil.

ma`naviy xayotida istiklol tufayli buyuk usish—uzgarishlar yuz berdi. Jahon axamiyatga molik bulgan juda katta tarixiy bunyodkorlik ishlari bajarildi. Bu soxada ent katta va ent axamiyatli yutuk, shu buldiki, Uzbeknstonda yangi ijtimoiy davlat tuzumining mustaxkam poydevori kurildi. Demokratik asosda yangi xukukiy davlat—xalk, davlati tashkil topdi. Xalk, ommasining jamiyat xayotidagi xal kiluvchi roli kayta tiklandi.

Mustakillik davrida dinu iymonimiz kayta tiklandi. Kur`oni Sharif va paygambarimiz Xadislari Uzbek tilida nashr etildi. Xalq va mamlakat tarixini xakdoniy yoritishga va yangicha talkin etishga tuliq imkoniyat va zarur shart-sharoit yaratildi. Natijada xar narsani uz nomi bilan atash, okni-oq, qorani—qora, yaxshini—yaxshi, yomonni—yomon, xatoni — xato, jinoyatni — jinoyat, jallodni — jallod, to`g`rini—tugri, buyukni—buyuk deb ochik, aytish (yozish) odat tusiga kirdi. Masalan, buyuk sarkarda va dono mutafakkir inson, adolatli podshoh, shoir Boburning Markaziy Osiyo xalklari tarixida tutgan urni, uning xalq va mamlakat oldidagi buyuk xizmatlari xolisona, xakoniy yoritiladigan buldi.

XX asr o`zbek adabiyotida buyuk shoir va podshoh Bobur obrazini yaratish soxasida katta ishlar qilingan, ajoyib asarlar yaratilgan. Bobur haqidagi bu badiiy asarlarimiz yosh avlodni ezgulik ruhida tarbiyalashga, O`zbekiston mustaqilligini qadrlashga va uni mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi. Bu asarlarning tarbiyaviy-ma`rifiy va estetik ahamiyati hamda zamonaviyligi ana shunda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. «Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». Toshkent 1999 yil.
2. Zaxriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» Toshkent «Yulduzcha» 1990 yil.
3. Pirimqul Qodirov «Yulduzli tunlar» Toshkent «O`zbekiston» 1990 yil.
4. Nuriddinov. M. «Boburiylar sulolasi» Toshkent «Fan» 1994 yil.
5. Nurmatov M. «etuk ijodning shu`lasi», «Til va adabiyot ta`lim» 1993 yil 1-son, 6-bet.
6. Qoraeva B. «Boburnoma»da milliy rux va qadriyatlarning aks ettirilishi, «TAT» 1996 yil 5-6son.
7. Qudratullaev X. «Bobur-Amir Temur saltanati vorisi» «Muloqot» 1996 yil, 4-son.
8. Valijanov S. «Gulbadanbegim», «Guliston» 1990 yil, II-son
9. Qudratullaev «Ximmati arjumand Bobur yoki shoxning sakkiz xislat» «Tafakkur» 1996 yil, 3-son.
10. Valiev B. «Bobur boglari», «Qishloq hayoti» 1996 yil, 13 fevral`.
11. Yo`ldoshev A. «Ulug shoir va buyuk sarkarda», «Vatanparvar» 1996 yil, 30 aprel`.
12. Akram Botirxon «O`z erni qo`yib Hind sari yuzlandim» «O`zbekiston ovozi» 1998 yil, 14 fevral`.
13. Ne`matullox Otajon va Gaybulloh as-salom «Biz bilgan va bilmagan Bobur». «O`zbekiston ovozi» 1997 yil, 13 fevral`.
14. Ismatullo. X, «Yo rab, netayin, ne yuz qarolig` bo`ldi». «Yosh kuch» 1992 yil, 5-6-son.
18. N.Karimov, B.Nazarov, T.Niyozmetova, U.Normatov XX asr O`zbek adabiyoti 11-sinf. Majmua. Toshkent «O`qituvchi» 1993 y.
19. A. Abdurazzoqov, X.Jumaev, M.Rahimjanova. Vatan adabiyoti` -Darslik-xrestomatiya. 6-sinf-Toshkent. «O`qituvchi» 1991y-464 bet.
20. www. Ziyonet.uz
21. www. nuqf. intal.uz